

**O'QUVCHILARDA KASB TANLASHGA NISBATAN IJOBIY
KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI**



Sattarova Nodira Oblanazarovna

Andijon viloyati Andijon tuman 44-maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish masalasi muayyan bir kasbiy faoliyat va unda foydalaniladigan mehnat qurollari, kasb-hunarni egallash yo'llari va mutaxassisning psixofiziologik xususiyatlariga qo'yiladigan asosiy kasbiy talablar, kasb-hunarning jamiyatda tutgan o'rni va ijtimoiy himoyalanganligi kabi ma'lumotlar asosida konkret kasb-hunar tanlashning ijobjiy motivlarini shakllantirish orqali shaxsda kasb-hunarga qiziqish uyg'otishdan boshlanadi.

Kalit so'zlar: Muammoga oid ilmiy adabiyotlar tahlili, o'quv xujjatlarini o'rghanish.

KIRISH.

Kasbiy shakllanish insonning aqliy qobiliyatları, jismoniy imkoniyatlari hamda u yoki bu sohaga bo'lgan layoqatlari, qiziqish va intilishlari, shuningdek, qadriyat va dunyoqarashlariga asoslanib biror-bir kasb sohasida ta'lim olishi, keyinchalik esa shu sohaga kirishib moslasha borishi (kasbiy adaptatsiya) va nihoyat, nisbatan qisqa vaqt mobaynida, malakali mutaxassis bo'lib yetishishi tushuniladi. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish masalasi muayyan bir kasbiy faoliyat va unda foydalaniladigan mehnat qurollari, kasb-hunarni egallash yo'llari va mutaxassisning psixofiziologik xususiyatlariga qo'yiladigan asosiy kasbiy talablar, kasb-hunarning jamiyatda tutgan o'rni va ijtimoiy himoyalanganligi kabi ma'lumotlar asosida konkret kasb-hunar tanlashning ijobjiy motivlarini shakllantirish orqali shaxsda kasb-hunarga qiziqish uyg'otishdan boshlanadi.

Kasbga yo'naltirish yosh cheklovlariga ega emas. Bundan tashqari, uni hayotning turli bosqichlarida o'tkazish mumkin va ba'zan kerak bo'ladi, chunki



shaxsni shakllantirish aniq yosh chegaralari bilan cheklanmagan jarayon bo'lib, inson butun hayoti davomida rivojlanadi va o'zgaradi.

Kasbga yo'naltirish uchun taxminiy yosh bosqichlari:

1. 5-6 yoshda, siz mos mакtabni tanlashingiz va bolaning qayerda o'qishini hal qilishingiz kerak: fizika-matematika litseyida, lingvistik gimnaziyada, balet mакtabida yoki sport mакtabida. Bu yoshda, albatta, yo'nalishni tanlash chaqaloqning o'ziga bog'liq emas, ota - onalar ko'proq qaror qilishadi, ammo kasb-hunar bo'yicha maslahatchi bolaning qanday qobiliyatları borligini aniqlaydi-bu uning qayerda o'qish oson va qiziqrarli bo'lishini taxmin qilishga yordam beradi.
2. 12-13 yosh. Bu yoshda o'quvchining qobiliyatları va qiziqlikları yanada aniqroq namoyon bo'ladi, ma'lum fanlarni o'rganish turli kasblar bilan bog'lana boshlaydi va qo'shimcha darslar uchun sinf profilini, bo'limni, doirani tanlash uchun kasbga yo'naltirish kerak bo'ladi.
3. 16-17 yosh. O'rta yoshda kasbga yo'naltirish qayerga borishni tanlash uchun zarurdir - universitet, kollej va o'qish yo'nalishi, ta'lim uchun mutaxassislik.

Kattalar uchun kasbga yo'naltirish har qanday yoshda - universitet yoki kollejni tugatgandan so'ng ham, nafaqaga chiqqandan keyin ham kerak bo'lishi mumkin.

Har bir yosh davri uchun kasbga yo'naltirish usullari mavjud:

Maktabgacha yoshdagi bolalar o'yin shaklida testlardan o'tadilar.

Maktab o'quvchilari ekskursiyalarga boradilar, master-klasslarda, biznes rol o'yinlarida, munozaralarda va davra suhbatlarida qatnashadilar, ular uchun so'rovnomalar va testlar o'tkaziladi. Kattalarni kasbga yo'naltirishda psixolog bilan suhbatlar, testlar, so'rovnomalar kasbiy motivatsiyani, amaliyotni aniqlash uchun ishlatiladi. Albatta, kasbga yo'naltirishning maqsadlari turli yosh guruhlarida farq qiladi, ammo kasbga yo'naltiruvchi psixolog ham psixolog, ham



mehnat bozori, kasbiy sohalardagi tendentsiyalar bo'yicha mutaxassis bo'lib, u ta'lim tizimini tushunadi va yoshiga qarab rivojlanish yo'nalishini aniqlashga yordam beradi.

S.L.Rubinshteynning fikriga ko'ra "qiziqish" deganda shaxsning yo'nalganligi, uning faoliyat motivi tushunilib, o'zining aniqlanganligi va emotsiyal jozibadorlik kuchi bilan shaxsning qaror qabul qilish jarayoniga ta'sir qidi. Pedagogikada "qiziqish" shaxs hayotining real sharoitlarida paydo bo'lib, uning mavjud bo'lgan ob'ektiv munosabatlarini o'zida aks ettiradi, deb qaraladi. Shaxs faoliyati uning extiyojlari bilan belgilanadi, ehtiyojlar asosida esa ma'lum bir sohalarga nisbatan qiziqish shakllanadi. Qiziqish shaxsning atrof muhit va ob'ektlarga nisbatan psixik jarayonlarning tanlangan yo'nalganligi, faqat o'zi tanlagan faoliyat bilan shug'ullanish ehtiyoji va faollikni oshirishga undaydigan omil sifatida namoyon bo'lib, inson faoliyatining samarali va sermahsul bo'lishini ta'minlaydi.

Pedagogika va psixologiyaga oid ilmiy adabiyotlar tahliliga asoslanib "kasbga qiziqish" tushunchasiga aniqlik kiritamiz.

Qiziqishning umumiyligi tarkibi L.G.Antipova tomonidan taklif qilingan bo'lib, o'z ichiga intellektual (tafakkur, xotira, tasavvur va hokazo), emotsiyal va irodaviy jarayonlarni oladi. Bunda qiziqishning uch komponentlik tizimi intellektual, emotsiyal va irodaviy hodisalarining umumiyligi yig'indisini emas, balki barcha psixik jarayonlarning o'zaro murakkab munosabatini tashkil qilishi ta'kidlanadi [Л.Г.Антипова, 1987: 8].

"Kasb-hunarga qiziqish" deganda shaxsning kasb-hunar tanlashga yo'nalganligi, tanlagan sohasining ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatlarini anglagan holda kasbiy motivlariining shakllanganligi bilan ifodalanib, shaxsning kasb-hunar haqida ko'proq ma'lumot olishida, uni egallash maqsadida o'zida kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish faolligini oshirishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Kasb-hunarga qiziqishni uch tarkibiy komponenti (intellektual, emotsiyal va irodaviy komponentlar) bilan birga to'rtinchi komponentni – kasb-hunar



tomonidan mutaxasisning kasbiy bilim, malaka va ko`nikmalariga, xamda uning qobiliyatlariga qo`yiladigan talablarni ham o`zida aks ettiradi. Ushbu to`rtta komponent o`zaro munosabatda va mutanosib bog`liqlikda bo`lib, inson shaxsiga hamda uning hayot faoliyatiga ta`sir ko`rsatadi.

Kasb-hunarga qiziqishni shakllantirish bu, birinchi navbatda, o`quvchida mehnatsevarlikni hamda unga ijodiy yondashish tuyg`usini tarbiyalash, kasbhunar tanlashdagi mas`uliyat va kasbning jamiyat uchun ahamiyatini xis qilishni tarbiyalashdir. O`z navbatida, bilishga qiziqish ob`ekti bilish jarayonining o`zi bo`lib, xodisalarining ma`nosini tushunish, tegishli soha bilimlarining nazariy va ilmiy asoslarini chuqurroq o`rganish bilan belgilanadi. O`quvchining kasbhunarlarga oid bilimlarni egallashga qiziqishi uning darsda va darsdan tashqari jarayonlarda faollik ko`rsatishiga, olayotgan bilimlarining sifatiga, ta`lim olishning ichki motivlarini shakllanishiga, o`z hayotiy pozitsiyasiga ega bo`lishiga olib keladi. Bu esa ta`limtarbiya jarayoni samaradorligini ta`minlab, o`quvchida kasb-hunarga qiziqishni bilim olishga qiziqish bilan o`zaro uyg`unlikda shakllanishini ta`minlaydi.

O`quvchilarda kasb-hunarga qiziqishning shakllanish jarayoni turg`un va faol bo`lishi ularni maqsadlariga erishishlarida hamda mavjud qiyinchiliklarni yengib o`tishlarida yordam beradi. Qiziqish dinamik, ongli va turg`un shakllansagina o`quvchilarining ongli ravishda kasb-hunar tanlashlariga samarali ta`sir ko`rsatadi.

Qiziqishning dinamikligi – doimo faolligi va shakllanish jarayonida o`zgarishga moyilligida aks etadi.

Qiziqishning ongliligi – shaxsning o`ziga-o`zi baho berishini kasb-hunarga munosabati bilan belgilanadi.

Kasb-hunarga qiziqishning turg`unligi – aynan bir kasb (yoki kasbiy soha)ga nisbatan ijobiy va faol munosabatning doimiyligida namoyon bo`ladi.

Psixologiya va pedagogika sohalari vakillarining tadqiqotimiz mavzusiga oid ilmiy asoslangan xulosalariga tayanib, 12-16 yosh davri maktab o`quvchilarida kasbhunarga qiziqish shakllantirish uchun optimal davr, deb



hisoblash mumkin. Biron-bir kasbiy faoliyat turiga nisbatan erta shakllangan qiziqish uzoq vaqt saqlanib qoladi va kasbiy maqsadning asosini tashkil etadi.

Maktab o'quvchilariining kasb-hunar tanlashi ob`ektiv va sub`ektiv omillar majmuasi ta`sirida sodir bo`ldi. Ob`ektiv omillarga shaxs hoxishi va irodasiga bog`liq bo`lmagan, lekin kasb-hunarga yo`naltirish jarayonining sifatini oshirish uchun sharoit yaratadigan quyidagi omillarni kiritamiz: ota-onalar va qarindoshlarning, pedagogo`qituvchilarning, o`rtoqlarning, kasb egasining va kasbga yo`naltirish bo`yicha mutaxassisning maslahatlari, ommaviy axborot vositalaridan olingan ma`lumotlar, kasbning jamiyat uchun ahamiyati. Sub`ektiv omillar qatoriga esa o'quvchining individual va psixofiziologik xususiyatlariga bog`liq bo`lgan omillar bilan bir qatorda o`z bilimlarini amalda qo'llashga qiziqishi, mas`uliyat, intizomlilik va ideal (ya`ni badiiy adabiyot yoki filmlardagi asar qahramonlariga xavas), kasb-hunarni o'quvchining shaxsiy qobiliyatlariga talablarini to`g`ri kelishi, kasbni mahorat darajasida egallahga bo`lgan hoxistak va shu kabilalar kiradi. Har qanday kasbiy faoliyatning muvaffaqiyati mutaxasisdan faqatgina bitta qobiliyat yoki sifatni emas, balki ularning muayyan kombinatsiyasini talab qiladi. Bu kombinatsiyasi ikki guruh qobiliyatlarni – ko`pchilik kasblar uchun nisbatan umumiyligini qobiliyatlar va faqat ayrim kasblar uchun xos bo`lgan maxsus qobiliyatlardan iborat bo`ladi.

XULOSA

Kasbga qiziqish insonning kasb-hunar tanlashidagi birinchi jiddiy qadami bo`lib, o'quvchining shaxsiy kasbiy rejani asosi hisoblanadi. Kasbga qiziqish bilan bilishga qiziqish qay darajada o`zaro mutanosib bo`lsa, ularning o`zaro ta`siri ham shu darajada kuchli bo`ladi. O'quvchilarda kasb-hunarga qiziqishni shakllantirish kasb tanlashga yo`naltirish ishining muhim bosqichlaridan biri bo`lib, maktablarda bosqichmabosqich va o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olib rejalashtirilishi va tashkil etilishi kerak. Bunda beriladigan ma`lumotlar kasb-hunarlarning o`ziga jalb qiluvchi tomonlaridan tashqari kasbiy faoliyatning mazmuni, ijtimoiy ahamiyati va mutaxassisning psixofiziologik xususiyatlariga qo`yiladigan umumiyligini va maxsus kasbiy talablar, zarur kasbiy





bilim, ko`nikma va malakalar to`g`risida ham yetarlicha chuqur tushunchalarni o`z ichiga qamrab olishi maqsadga muvofiq bo`ladi. O`quvchilarning turli zamonaviy kasb va hunarlar to`g`risidagi tasavvurlari qanchalik keng va chuqur bo`lsa, ularni kasbga qiziqishi shunchalik ongli va turg`un bo`lib shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30 dekabrdagi “Umumiy o`rta ta`lim muassasalarining 10-11-sinflari o`quvchilarini kasb-hunarga tayyorlash chora-tadbirlari to`g`risida”gi 792-son qarori // <https://lex.uz/uz/docs/5800745>
2. Антипова Л.Г. Проблемы формирования профессиональных интересов у учащихся средних профтехучилищ: Метод. пособие. –М.:Высш. шк., 1987.
3. Гальперин П.Я. Методы обучения и умственного развития ребенка. М.:
4. Internet manbalari